
Aktiv seysmik himoya qurilmalarni qo’llash va yasash bo’yicha chet el mutaxassislarini jalb qilgan holda qisqa o’quv kurslari tashkil etildi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “O’zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-144-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida aktiv seysmik himoya qurilmalarni qo’llash va yasash bo’yicha chet el mutaxassislarini jalb qilgan holda qisqa o’quv kurslari tashkil etildi.



Ushbu o’quv kurslari Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti hamda Qurilish vazirligi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Unda AQShning Berkli shahridagi Kaliforniya universiteti hamda koreyalik mutaxassislar o’z ma’ruzalari bilan o’z yurtlaridagi tajriba bilan almashishdi.

Mazkur o’quv kurslarida olingan tajriba asosida aktiv seysmik himoya qurilmalarni qo’llash va yasash bo’yicha uslubiy qo’llanma ishlab chiqiladi.